

Vatanyagonadir,
Vatan bittadir!

N:11 (67072)
2016-yil
14-mart

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqra boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

*Bizni qutlaz yashnagan makon,
Tupzog'i zar, huz O'zbekiston!*



Mamlakatimizda mustaqilligimizning ilk yillaridanoq xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, jismoniy, ma'naviy, kasbiy va intellektual salohiyatini yuksaltirish kabi masalalarga ustuvor vazifa sifatida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Kuni kecha poytaxtimizdagi «Turkiston» saroyida Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan tadbirda ham ana shu jihatlar alohida ta'kidlandi.

Tadbirda Prezidentimiz Qaroriga muvofiq, ushbu yilda adabiyot, san'at, fan, ta'lim, madaniyat va sport sohalarida erishgan muvaffaqiyatlari uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan 14 nafar qizga ushbu yuksak mukofotlar tantanali ravishda topshirildi.

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari, jumladan, Nukus shahridagi 22-IDUMning 9-sinf o'quvchisi Aziza Bayjigitova yurtimizda yoshlarni, ayniqsa, iste'dodli qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani va ularning iqtidorlarini ro'yobga chiqarish, faolligini oshirishga qaratilayotgan doimiy e'tibor uchun Yurtboshimizga samimiy minnatdorchilik izhor etdi.

Ushbu sonnda:

«BOLALIK
KUNLARIMDA...»

3-bet

YURT BAG'RIDA
YASHNAYOTGAN BOG'

6-bet

KATTA
TANAFFUS

8-bet

«MUSTAQILLIK MADHI BOLALAR IJODIDA»

AN'ANAVIY RESPUBLIKA TANLOVIGA MARHAMAT!

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 25 yilligiga bag'ishlab yosh avlod qalbidagi Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, iste'dodli yoshlarni

sohalarda qo'lga kiritilgan yutuqlarni yana bir bor tarannum etishdan iborat. Mazkur tanlov:

1. Badiiy ijod (she'rlar, hikoyalar).
2. Tasviriy san'at yo'nalishida o'tkaziladi.



ZUBAYDA olgan surat

kashf etish maqsadida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika bolalar kutubxonasi hamda «Tong yulduzi» respublika bolalar va o'smirlar gazetasi hamkorligida mazkur yilning 15-avgustiga qadar umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» an'anaviy respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanlovinu o'tkazadi. Ko'rik-tanlovdan maqsad Mustaqillik sharofati bilan turli

Mavzuga oid ijodiy ishlarning ayrimlari «Tong yulduzi» sahifalarida yoritib boriladi.

G'oliblar Mustaqillik bayrami arafasida aniqlanib, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

Ijodiy ishlar 2-3 bet hajmdan oshmasligi lozim. Ijodiy ishlar maktab yoki elektron holatda Respublika bolalar kutubxonasi manziliga yetkazilishi lozim.

Manzil: Indeks 100000, Toshkent shahri, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 47-uy. Respublika bolalar kutubxonasi.

Tel: 371-233-17-91, 233-25-19

Elektron manzil:

Bolalar_RK@inbox.uz
www.kitob.uz

Ta'lim muassasamiz rahbari Mamlakat Abduvaliyeva

bastakorning hayoti va ijodi haqida qisqacha to'xtalgach, navbat musiqiy dasturga berildi.

Eng avval sahnaga jajji musiqachilar taklif etildi. 1-«V» sinf o'quvchisi Sevinch Ovlaveva, 4-«G»dan Samandar Hamroqulov sevimli bastakorimizning nafis musiqalarini ijro etib, barchani hayratga solishdi. Ijodkor bastalagan kuy hamohangligida 4-«V» sinf o'quvchilarining xor ijrosi yig'ilganlarga manzur bo'ldi. 8-«A»dan Diyora Hikmatullayeva, 9-«A»dan Murod Qo'rg'onboyev va Shahrizoda Abdullayeva qo'shiqlarni mahorat bilan ijro etib, olqishlarga sazovor bo'ldilar.

BARHAYOT SIYMOLAR

Maktabimizda taniqli bastakor, davlatimiz madhiyasining musiqa muallifi Mutavakkil Burhonovning 100 yilligi munosabati bilan «Iste'dodli ovoz sohiblari» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi.



Dildora MAHMUDOVA, poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 244-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat Akademik katta teatrda Yoshlar simfonik orkestri ishtirokida «Bahor nafasi» konsert dasturi namoyish etildi.

Yoshlarga oid davlat siyosati amalda

Bahor nafasi

Yoshlar simfonik orkestri tashkil etilganiga ikki yildan ko'proq vaqt o'tgan bo'lsa-da, yurtimizda o'tkazilgan «Competizione dell'Opera» opera ijrochilarining XIV xalqaro tanlovi, san'at festivallarining faol ishtirokchisidir. Uch yuzdan ortiq ishtirokchi jalb etilgan mazkur konsert dasturida o'zbek va jahon bastakorlari asarlari, operalardan ariyalar, zamonaviy musiqiy asarlar ijro etildi.

va xalqaro tashkilotlarning mamlakatimizdagi vakolatxonalarini xodimlari yoshlarning mahoratini yuksak baholab, san'at ravnaqi yo'lida ko'rsatilayotgan ulkan e'tiborni ta'kidlashdi.

Muhtasham teatr binosi gulduros qarsaklarga to'ldi. Ushbu bayram dasturi tomoshabinlarga bahoriy kayfiyat tuhfa etgani ularning shodlik ufurib turgan yuzlarida aks etib turardi.

Konsertga tashrif buyurgan diplomatik korpus

Xurshida SULAYMONOVA

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 313-umumta'lim maktabida

KIM EDIGU KIM BO'LDIK

mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Unda ei ardog'idagi insonlar, maktab o'quvchilari hamda o'qituvchilari ishtirok etishdi.

Maktab rahbari G.Mansurxonova, ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari S.Mirsoatov navbatdagi uchrashuvdan maqsad o'quvchilarga Istiqloldan keyingi davrda xalqimiz erishgan yutuqlarni yana bir bor e'tirof etishdan iboratligini aytib o'tishdi.

Sherzod Zulfiqorov so'zga chiqib, mustaqillik tufayli milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimiz qayta tiklanganligi, ularni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazishda yoshlarning burchi va mas'uliyati, o'quvchilarning ota-onalari va Vatandagi burchlariga sodiq farzand bo'lib voyaga yetishlari uchun o'qish va o'rganish zarurligini, Istiqloldan avvalgi davr bilan qiyosiy solishtirib, slaydlar orqali tahlil qilib berdi.

«Eng yaxshi elektron Axborot ta'lim resurslari» tanlovining respublika bosqichi g'olibi 6-«B» sinf o'quvchisi Saidobid Husanov, «Bilimlar bellashuvi»da geografiya fanidan respublika bosqichi g'olibi 8-«A» sinf o'quvchisi Abdulaziz Abduhamidov

o'zining erishgan yutuqlari navbatdagi rejalariga haqida to'lqinlanib gapirib berishdi.

Mehmonlar mustaqillik oliy ne'mat ekanligi, tinch, osoyishta yurtimizni asrab-avaylab, gullab-yashnashiga o'z hissamizni qo'shish muqaddas burchimiz ekanligini katta hayajon bilan alohida ta'kidladilar.

Muzaffar AHMEDOV



O'ZBEKISTON - BAG'RI KENG DIYOR

Sirdaryoda «O'zbekiston - bag'ri keng diyor» deb nomlangan fotoko'rgazma tashkil etildi.

Mamlakatimiz mustaqilligining 25 yilligiga bag'ishlab tashkilotlangan mazkur ko'rgazma xalqimizning Istiqlol yillarida erishgan yutuqlarini keng targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, foto san'ati ustalari va o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi. Ishtirokchilar o'lkamiz tarixi, boy madaniy merosi, milliy an'ana va qadriyatlarimiz aks etgan 120 dan ortiq foto asarlardan bahramand bo'lishdi. Bunda yoshlar hayoti, ularning ishlab chiqarish, ilm-fan, madaniyat va sport sohasida erishayotgan yutuqlarini aks ettiruvchi fotolavhalar keng o'rin egallagan.

«Bunyodkorlik, madaniyat va san'at», «Sport», «Diniy bag'rikenglik» kabi mavzularni qamrab olgan ushbu ko'rgazma o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik, yurtini sevish tuyg'ularini rivojlantiribgina qolmay, ularda ona Vatanga sadoqat, o'z xalqi tarixidan faxrlanishga chog'laydi.

F. ABDUSAMAD qizi

BAXTLI BOLALIK MADHI

Yurtimizning qaysi go'shasiga tashrif buyurmang, davlatimiz tomonidan o'quvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar, qulay imkoniyatlarga guvoh bo'lasiz. Tumanlarda qad rostlagan yangi bolalar musiqa va san'at maktablari, madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etilgan to'garaklarda san'atning bir necha turi bilan shug'ullanayotgan bolajonlarni ko'rganimizda, qalbimiz quvonchga to'ladi.

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi madaniyat va aholi dam olish markazi huzurida tashkil etilgan «Qaldirg'och» bolalar dastasida yuzlab o'g'il-qizlar milliy va jahon cholg'ulari, an'anaviy va estrada qo'shiqchiligi sirlarini o'rganmoqda. Ijodiy jamoa yoshlarining iste'dodlarini yuzaga chiqarish, aholi orasida namoyish etish maqsadida tashkil etilayotgan turli tanlovlar, konsert dasturlari guruh a'zolarini rag'batlantirish, ijod yo'lida dadil odimlashga omil bo'lmoqda.

«Qaldirg'och» dastasi navbatdagi konsert dasturini «Baxtli bolalik madhi» deb nomladi. Mazkur dastur mehmonlari Vatand, tinchlik, baxtli bolalik, Navro'z haqidagi qo'shiqlardan bahramand bo'lishdi.

OLMOS

«BOLALIK KUNLARIMDA...»



**Tursunboy
ADASHBOYEV**

Aadibning bolaligi

Qadri bolajonlar, nabiralirim! Sevimli gazetangiz orqali Sizlarga bolaligim qanday kechganligi, adabiyot olamiga qay tarzda kirib kelganligim haqida qisqacha hikoya qilib bermoqchiman.

TANDIRGA BO'YIM YETMASDI

Tandirga olov yoqish uchun bo'yim yetmaganligi sababli, Abbosxon tog'am g'isht terib, o'ziga xos zinapoya qilib bergandi. Aravakash Tumanboy aka Bo'riboyev shuvoq va burganlardan iborat tandirbop o'tinlarni keltirib berardi. Men ularni yoqib tandirni qizitgach, onam dalada yer haydayotgan traktorchilarga ikki kun davomida bir haftaga yetari nonlarni yopgach, bizning mehnat haqimiz evaziga 10 dona non berishardi. Eng qizig'i, u nonlar bug'doy yoki makkajo'xori unidan tayyorlanmasdi. Xo'sh, qanaqa un deb so'rashingiz tabiiy. Men yuqorida atagan nonlar otlarga yem qilib beriladigan suli donlaridan tortilgan un edi. Sababi qishlog'imizdagi omborxonada boshqa donlar tugab bo'lgandi. Shuning uchun odamlarning kunlari suliga qolgandi. Uning qipig'i ko'p bo'lgani uchun onam o'sha unlarni besh-olti marta elakdan o'tkazishga to'g'ri kelardi.

XALQ DOSTONLARINING TA'SIRI

Aziz o'g'il-qizlarim, surxondaryolik yoki qashqadaryolik baxshilarning soz ohangiga moslab «Alpomish», «Go'ro'g'li» turkumiga kirgan dostonlarni qanday ijro etishini televizor orqali ko'p marta tomosha qilgansiz. Bizning yoshlik yillarimizda qishlog'imizda paxta ekilardi.

Atrofimiz ulkan tog'lar bilan qurshalganligi uchun paxtaning birinchi terimidani keyin qor yog'ib, qolgan ko'saklarni yig'ishtirib klub va choyxonalarda, xonadonlarda paxtasini chuvirdik. Qishlog'imiz raisi Abdullajon Shaitov o'ta tadbirkor kishi bo'lgani uchun klub va choyxonalarga ko'sak chuvishga kelgan odamlarga xalq dostonlarini o'qitib, ish yuritishni odat tusiga aylantirgandi. 5-sinfda o'qishimga qaramay, hamqishloq og'am Davronboy aka Shobdonov bilan birgalikda navbat bilan hasharchilarga «Go'ro'g'li», «Kuntug'mish» kabi xalq dostonlarini o'qib berardik.

Uch yil davomida shunday dostonxonliklar, she'riyatga bo'lgan qiziqishimni oshirib, qalbinga cho'g' tashlagan bo'lsa kerak.

IZTIROB

Otasi Ikkinchi jahon urushidan qaytmagan o'quvchilarga maktabda ust-boshlar berilardi. Bu marosim 9-may bayramida o'tkazilardi. Maktabimizdagi barcha o'quvchilarning ishtirokida gorn va barabanlar sadosi ostida «Yetimlar uch qadam oldinga chiqsin», deb berilgan buyruqqa ko'ra, men kabi sag'ir bolalar uch qadam odimlab safga tizildik. Alfavitga binoan familiyalar o'qilardi...

Men esa ohista safdan o'zimni chetga olib, uyimizga qarab zir chopaman... Onamning tizzalariga boshimni qo'yib, dod solib yig'layman. Otam yo'qligidan o'ksinaman. Yuqoridagi kabi iztiroblar qalbimdan she'r bo'lib silqib chiqqan bo'lsa, ajab emas.

ENG OG'IR KUNLAR

Ikkinchi jahon urushi, ya'ni 1941-1945-yillar men va tengdoshlarim uchun eng og'ir kunlar hisoblangan. Ko'pchiligimizning otalarimiz urushdan qaytishmagan. Biz tushga qadar maktabda o'qib, tushdan so'ng dalaga chiqib ishlardik. Ust-boshimiz yupun, yalangoyoq yurishga majbur bo'lganmiz.

OTAM VAFOT ETGACH...

Otam ichterlamba kasaliga chalinib vafot etgach, bobomning tarbiyasiga o'tdim. Ichki intizomga jiddiy amal qiladigan talabchan bobom mening kitobga bo'lgan qiziqishimni olqishlab otamning do'sti Valijon tog'aning aravasini qo'shtirib, kaminani Namanganga olib bordi. Shahardagi qarindoshlarimiznikida bir kun mehmon bo'lgach, kitob do'konidan o'quv qo'llanmalarini xarid qildik. Muzqaymoq, gabsuv olib berganlaridagi quvonchimni bir ko'rsangiz edi... Trinkali yangi shim, brizent tuffi bilan birinchi sinfda o'qishni boshlab yubordim. Biz maktabga borgan yili lotin imlosi iste'moldan chiqib, kirill alifbosiga o'tilganligi uchun yangi imloda faqat «Alifbe» kitobi nashr etilgan ekan. Natijada, asosiy qo'llanmalar lotin yozuvida bo'lgani uchun har ikkovini o'zlashtirishga to'g'ri kelgan.

ADABIYOT DEGAN SEHRLI OLAM...

6-sinfdan boshlab o'zimcha she'rlar mashq qilishga kirishganman. Bahodir Omonov, Haydarali Buzoraliyev, Dadaxon Qozoqov hamda Qirg'izboy Nurqulov singari o'z ishiga fidoyi o'qituvchilarimning ko'magi bilan adabiy kitoblar olamiga sho'ng'ib ketdim. Ulug' ustozlarim Mirtemir, Quadrat Hikmatlar qo'llovida dastlabki mashqlarim bosilib chiqdi. O'z ustimda jiddiy ishladim. Ayniqsa, jahon adabiyotini izchil o'rganib bordim. Oqibatda o'zbek bolalar adabiyotining vakillaridan biriga aylandim. Oila qurdim, bir-biridan diyonatli, oqil farzandlar topdim.


Ayni zamonda meni ko'llab-quvvatlagan ko'plab ijodkor safdoshlarim, do'stlarim bor. Tohir Malik, Anvar Obidjon, Miraziz A'zam, Zuhridin Isomiddinov singari adib, shoir, olim - suyanch tog'larim bilan bir qatorda bugungi o'zbek bolalar she'riyatini yuksak cho'qqilarga ko'tarilishida o'z ulushlarini qo'shgan Hamza Imonberdiyev, Rustam Nazar, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab, Vali Ahmadjon, Xudoyberdi Komilov, Zafar Isomiddinov, Sodiqjon Inoyatov, Ma'mur Qahhor, Qo'zi Ismoil, Erpo'lat Baxt va Ne'mat Dushayevday iqtidorli ukalarim bor.

Aziz o'quvchilar!
Siz hozirgi davr bilan mening o'tmishimni bir qiyoslab ko'ringlar. Yer bilan osmon qadar farqi bor. Demak, bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor. Yagona o'tinchim - a'lo o'qib, ona Vatanimizga munosib, sadoqatli o'g'il-qizlar bo'ling. Siz uchun barcha sharoitlar muhayyo.

Sh. MAXMADIYEV olgan surat

O'ZIMIZNING JAHONGIR!

Jahongir har doimgidek barvaqt uyg'ondi. Otasi Mirzohid aka fermer bo'lgani bois, ertalabdan dala aylangani chiqib ketishini u yaxshi biladi. Shuning uchun otasi bilan bir-ikki qo'l shashka o'ynashga ulgurishi kerak. Mirzohid aka o'g'lining shashka va shaxmat bo'yicha ilk ustozlari. O'g'li ham boshlang'ich sinflar o'rtasida bu sport turida maktab chempioni.



– Ba'zan ukam meni shoshirib qo'yadi, – deydi Namangan viloyati, Norin tumanidagi 44-umumta'lim maktabining 2-«A» sinf o'quvchisi Jahongir Abdug'afrov.

Jahongir otasiga faqat a'loga o'qiyman, deb so'z bergan va so'zining ustidan chiqish uchun doimo harakatda. Darsdan bo'sh paytlarida «Bolajon»

telekanali orqali berib boriladigan ingliz tili mashg'ulotlarini qoldirmay kuzatib boradi.

Kech tushdi. Jahongir otasining ishdan qaytishini intiqlik bilan kutayapti. Chunki ota-bola bugun shaxmat donalarining inglizcha nomlanishini birga o'rganishmoqchi. Nimaga, deysizmi? Jahongir kelajakda xalqaro musobaqalarda xorijlik raqiblari bilan bellashish niyatida. Til bilishi esa bunday paytlarda asqotishi aniq.

Nozima QUDRAT qizi

O'lkamizda bahor! Tabiatda uyg'onish, yangilanish davri. Bu palla haqida gap ketganda, xalq orasida «ilikuzildi» iborasi ko'p ishlatiladi.

MUTAXASSIS MASLAHATI

Salomatlik darsi

Qish davomida organizmda sarflanib, darmondorilarning kamaygani hisobiga ayrim hollarda o'zimizda horg'inlik, tez toliqib qolish holatlari seziladi. Bugungi suhbatimizda oliy toifali shifokor Dilbar G'ULOMOVAdan bu boradagi fikrlarini so'radik.

– Agar o'quvchilarimiz o'zlarini horg'in his qilishsa, ularda hafsalasizlik alomatleri sezilsa, bu temir moddasi yetishmasligi belgisidir. Temir moddasi vositasida organizmda ishlab chiqariladigan gemoglobin o'zi bilan birga oqsil, kislorodning ma'lum bir miqdorini olib yuradi, gemoglobinning keskin tushib ketishi organizmdagi to'qimalarning havo bilan ta'minlashi qiyinlashishiga olib keladi. Buning oldini olish uchun temir moddasining asosiy manbai sanaladigan go'sht mahsulotini ko'proq tanovul qilish lozim. Quruq mevalar, tuxum, sitrus hamda sabzavotlar S vitaminiga boyligi bilan temirning so'rilishini ta'minlaydi. Mabodo, ko'zingiz qizarganini bilsangiz, aniqki, sizda B guruhidagi vitaminlarga ehtiyoj bor. Ko'z olmasidagi mayda qon tomirlar yallig'lanishi oqibatida, qizarish paydo bo'ladi. Aksari hollarda, organizmning B₂, B₆ vitaminiga tanqisligi sabab bo'ladi. Ushbu vitaminlar ko'zda suyuqlik ajralishining tartibga solinishida qatnashadi. B guruhidagi vitaminlar baliq, go'sht (ayniqsa, jigarda), yong'oq va sut mahsulotlarida mo'l bo'ladi. 45 g yong'oq bir kunlik vitamin bilan ta'minlaydi.

Organizmda magniy yetishmasligi mushak xurujlari yoxud uyqusizlikni keltirib chiqaradi. Bunda kepakli non, makaron, quruq mevalar, qo'ziqorin yordamga keladi. Shuningdek, ismalqoq, yalpiz, otquloq, shovul kabi darmondorilarga boy bo'lgan ko'katlardan somsa, chuchvara tayyorlab iste'mol qilish ham koni foyda.

Ko'zlagan ilmi puxta egallab maqsadingizga erishishni istasangiz, bugundanoq sog'lig'ingizga e'tibor bering. Zero, salomatligimiz o'z qo'limizda!

Nurbek QIDIRALIYEV yozib oldi

Mamlakatimizning turli hududlaridagi muxlislarimiz tahririyatga yuborgan maktublari taqdiri bilan doimo qiziqib turishadi. Kuni kecha Yashnobod tumanidagi 244-umumta'lim maktabining 6-«E» sinf o'quvchisi Javohir Abdulniyozov qo'ng'irog'idan ko'pchiligimiz mamnun bo'ldik. Uning maktabi, sinfdoshlari haqida aytadigan gaplari ko'p ekan. Shu bois, mamnuniyat bilan tahririyatga taklif qildik. Eng qizig'i, Javohir bir o'zi emas, Nargiza va Farzona kabi iqtidorli sinfdoshlarini ham boshlab keldi.

TASHRIFINGIZDAN MAMNUNMIZ

– Men matematika, ona tili va rasm chizishga qiziqaman, – deydi Nargiza.
– Fan oylklari davomida mazkur fanlarga oid rasmlar chizaman. Bu ishimdan ustozlarim, sinfdoshlarim har doim mamnun bo'lishadi. Otam shifokor bo'lganlari uchun bu kasbga qiziqaman.

– Men yoshligimdan shashka o'ynashni yaxshi ko'raman. Tuman, shahar birinchiligi musobaqalarida maktabimiz sharafini munosib himoya qilishga harakat qilaman, – deb suhbatimizga qo'shildi Farzona. – Dugonam kabi men ham shifokor bo'lmoqchiman. Buning uchun hozirdan boshlab puxta bilim olish lozimligini bilaman.

Nihoyat, Javohir bilan ham gurgunglashish vaqti yetdi. Suhbat davomida uning 8-bolalar va o'smirlar boks maktabida shug'ullanayotgani, tuman va shahar birinchiliklarida ishtirok etib, uchta oltin, uchta kumush, uchta bronza medalini qo'lga kiritganini bilib oldik. Sport bilan bir qatorda fanlarni ham a'lo baholarga o'zlashtirayotgani kishini quvontiradi.

Mana, guvohi bo'lganingizdek, mehmonlarimiz bilan ham suhbatlashib oldik. E'tibor bergan bo'lsangiz, ularning tengdoshlarida deyarli farqi ham yo'qday. Lekin Javohir ikki sinfdoshini boshlab kelishi, ularning yutuqlarini birinchi galda ta'riflashga intilishidan, asosiysi esa, o'quvchilar gazetamizni o'zining erkin minbari ekanligini his qilishidan sevindik.

Yusuf ABDULLAYEV



N. SULTONOV olgan suratlari



Zarifa ISMOILOVA, 3-«A» sinf o'quvchisi

Bekzod MIRZAYEV, 5-«A» sinf o'quvchisi



Tahririyatda odatiy ish kunlarining biri. Gazetaning navbatdagi sonini tayyorlash bilan bandmiz. Shu payt eshik ochilib, bir guruh o'quvchilar kirib kelishdi.

Ma'lum bo'lishicha, ular poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 181-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchilari ekan. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Dilorom Jalilova shogirdlari – Madina Samadova, Mashhura Mustafoyeva, Amina Imomova, Bekzod Mirzayev, Madina Orziqulovalar chizgan rasmlari, yozgan maqola va she'rlarini olib kelibdi.

Mehmonlarning qo'llaridagi rasmlarni ko'rib, avvaliga ularni tasviriy san'atga ixtisoslashtirilgan maktabdan kelishdimi, degan xayolga bordik. Chunki tasvirlarda o'quvchilarning o'ziga xos mahorati sezilib turardi.

Muloqot chog'i Madina Samadova va Amina Imomova «Bilimlar bellashuvi»ning ona tili va adabiyot fanidan tuman bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritishganidan xabardor bo'ldik.



– Tabiat haqida o'qigan kitoblarni asosida rasm chizish menga yoqadi, – deydi Bekzod Mirzayev chizgilarini e'tiborimizga havola etarkan. – Shu bahonada badiiy kitoblarni ham ko'proq o'qishga e'tibor beraman.

Quyida ularning ijod namunalariidan ayrimlarini e'tiboringizga havola etamiz.

Dilorom HOTAMOVA

BILIMDONLAR BELLASHUVI



Sh. MAXMADIYEV olgan surat

«Kamalak» bolalar tashkiloti faoliyatini yanada takomillashtirish, bolalar tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy faoliyat tizimini yanada mustahkamlash borasida Sergeli tumanidagi 300-IDUMda «Kamalak» bilimdonlari tanlovining hududiy bosqichi bo'lib o'tdi. Unda tumandagi mavjud umumta'lim maktab o'quvchilari ishtirok etdi. Bellashuv qatnashchilari tanishuv, sahna ko'rinishi, savol-javob va ijtimoiy loyiha kabi 4 shart bo'yicha o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishdi. Qiziqarli o'tgan bahs-munozaralar yakuniga

ko'ra, 285-umumta'lim maktabining «Kamalak» yulduzlari jamoasi 1-, 8-umumta'lim maktabining «Istiqol farzandlari» 2-, 6-umumta'lim maktabining «Kamalak jilosi» jamoasi 3-o'rinni egalladi.
– Ushbu tanlovda ishtirok etish orqali o'z bilimlarimizni yanada boyitdik, ko'plab do'stlar ortirdik, – deydi 8-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi Madina Oromova. – Biz yosh avlodni sog'lom va barkamol insonlar bo'lib kamolga yetishimiz uchun bu kabi bellashuvlar ko'proq o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.
Bellashuv yakunida g'olib jamoalar tashkilotchilarning faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Shavkat KAZAKBAYEV





Lesson 78

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

LET'S MAKE NEW WORDS

(Yangi so'zlar yasaymiz)

Find the name of pictures and adding these make a new word.




Sarvinoz NAZAROVA,

the pupil of lyceum by Uzbek State World Languages University

MY VOCABULARY

Match the words and pictures. Write sentences.

new expensive lovely small old horrible hot cold cheap big unpleasant interesting



CITIES AND COUNTRIES

(Davlatlar va shaharlar)

Where are the cities? Read and answer.


- Where is Tokyo? - It's in Japan.
- Where is London? - ...
- Where is Paris? - ...
- Where is Samarkand? - ...
- Where is Berlin? - ...
- Where is New Deli? - ...
- Where is Rome? - ...
- Where is Hong Kong? - ...



Prepared by Dinora SHAKIROVA

CROSSWORD

Plurals
Write the plural forms of the following nouns.



- Down: 1) woman 2) man 3) knife 4) sheep 5) tooth 6) city 7) glass 8) goose 10) child 9) ox 12) box 11) mouse 13) foot

Made by Zohida TURSINOVA, teacher of school number 31 in Mirobod district

Find yourself (O'zing top)



Tick (✓) the correct sentences.

1. Is a sofa in the living room?
Is there a sofa in the living room?
2. There's a CD player.
There are a CD player.
3. Are there a lamps?
Are there any lamps?
4. Your keys are in the drawer.
Your keys are on the drawer.
5. The lamp is next to the bed.
The lamp is next the bed.

Kumush TURG'UNOVA, the pupil of school number 54 in Urta chirchik district, Tashkent region

USTOZ ISHONCHI

Men ko'plab nashrlar qatori «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini o'quvchilarim bilan kuzatib boraman. Ayniqsa, o'quvchilarning ijod namunalarini o'qiganimda, ko'nglim yorishadi.

Bizning maktabimizda ham turli sohalar bo'yicha iqtidorli bolalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ijodkor o'quvchi qizlarimizning she'riy mashqlari gazeta sahifalarida chop etilishini istar edik.

Sh. QUDRATOV,
Navoiy viloyati, Qiziltepam tumanidagi 36-umumta'lim maktabi direktori

NURLI MAKON

Vatanimni sevaman, Ardoqlayman onamni. Ularning har ikkisi, Yoritadi xonamni.

Olam ichra yagona, Shu nurli O'zbekiston. Doimo omon bo'lsin, Biz tug'ilgan hur makon!

Shahribonu DUSHAMOVA,
1-sinf o'quvchisi

QIZILTEPAM

Qiziltepam yashnamoqda, Olg'a qadam tashlamoqda. Go'zal bo'ldi bozorlari, Nur taratar gulzorlari.

To'yxonada to'y qiladi, Ko'ngli ochiq insonlari. Imoratlar tengsiz qasr, Kundan kunga yashnayotir.

Tinchlik bo'lsin abadiy, O'ynab kulsin bolalar. Qirlar bag'rin yondirib, Nur taratsin lolalar.

Farangiz BAFOYEVA,
6-sinf o'quvchisi

ZULFIYAGA O'XSHAGIM KELAR

Har satingiz bir olam ma'no, Ular mening yuragimda jo. Yangrab turar misoli duo, She'rilaringiz ko'zga to'tiyo.

Men ham shunday she'r yozgim kelar, Ammo netay oqizdir qalam. Yurak zavqu quvonchga to'lar, Zulfiyaga o'xshagim kelar.

Sadoqat NASULLAYEVA,
9-sinf o'quvchisi

O'sha kuni ikki qo'shni bir tup yong'oq daraxti ustida tortishayotgandi. Ikkisi ham «Bu daraxtni mening bobom ekan», deya da'vo qilishardi. Qariyb ikki asrdan oshiqroq umr ko'rgan bu ulkan yong'oq daraxtini asli kimning bobosi ekanini hatto qishloqdagilarning birortasi ham bilmasdi. Bu mojaroga men ham guvoh bo'ldim. Osmon-u falakka tarvaqaylab ketgan bu daraxtni kim ekan ekan, degan o'ylar toldim.

YURT BAG'RIDA YASHNAYOTGAN BOG'

O'sha kecha tush ko'rdim.

Tushimda Iskandartog'ning etagida yuqoriga ko'tarilib borayotgan emishman. Birdan tog'ning tepasidan oppoq bulutdek shovullab kelayotgan qor ko'chkisidan sergak tortdim. Qarasam, ahvol chatoq, o'zimni qayoqqa olishni bilmay qoldim. Shunda Iskandartog' menga o'zining nurli go'shasini namoyon etdi. Piryaxtog' bilan yuzma-yuz turgan balandlikda yop-yorug' joy borligini payqadim, darhol o'zimni o'sha yoqqa urdim. Qo'limdan Xizrsifat oqsoqol tutdi.

Qor ko'chkisi shunday yonginamdan o'qdek shovullab pastga tushdi. Men esa yuqoriladim. Menga yordam qo'lini cho'zgan oqsoqolning qo'lida kattakon kitob bor edi. U kishi kitobni ochib, ichidan uzilgan besh-o'n dona varaqni mening qo'limga tutqazdi. Bu senga, dedi chol mehr ila. Hayajonlanib uyg'onib ketdim.

Tushimdan ta'bir izladim. Erta azonda turib, Iskandartog' sari yo'l oldim. Tushimda ko'rgan manzarani o'ngimda qanday tus berishini o'ylab boraverdim. Haqiqatan ham Iskandartog'ning boshini oppoq qor qoplagan ekan. Nazarimda, bu purviqor tog'lar yanada burhikmat bo'lib ko'rindi. Uning yon bag'ridan oqayotgan zilol suvli buloq yoniga bordim. Buloq bo'yiga bir gala kakliklar suv ichishga

Tog'amning ishbilarmonligiga qoyilman. Oila a'zolari bilan birgalikda har yili dehqonchilik qilishadi. Hatto qishda ham tinim bilishmaydi. U kishi dehqonchilikni havas qilgan qishloqning ko'plab yoshlarini ish bilan ta'minlagan. Bir yili tajriba tariqasida bog'lariga limon ham ekishdi. Biram ko'p hosil berdi, asti qo'yaverasiz. Shu-shu limon ham yetishtiradigan bo'lishdi. Mehnat qilib tolmaydigan tog'amning farzandlari eng so'nggi chop etilgan badiiy kitoblari haqida ham bemalol bahslasha olishadi. Dadam ularni bizga hamisha ibrat qilib ko'rsatadilar.

Bir yili tog'amning dalasiga meni ham olib borishlarini so'radim. Dadam quvongan-cha rozi bo'ldilar. Daladagilar tong saharda turib, ko'p ishlarini bajarib olgach, peshin mahali biron dam olisharkan, men esa ishlayotganlarga suv olib boraman, ovqat tayyorlashda kelinoyimga qarashaman.

Bir kuni tog'am menga chaylada qolishimni tayinlab, o'zi uzoqroq maydondagi ekinlardan xabar olishga boradigan bo'ldi. Avvaliga biroz kitob o'qidim. Keyin uch-to't nafar ishchilarga qo'shilib o't o'rdik. Peshinda gurunglashib



tushgan ekan, mendan hurkib, pirillab osmonga ko'tarilishdi. Buloq atrofida katta kenglik bor ekan. Shuncha payt tog'larida yurib unga e'tibor bermagan ekanman. Ko'nglimdan bog' bunyod etish kerak, degan fikr kechdi. Borgan sari qarorim qat'iylashdi. O'sha kuni uyga hovliqib keldim. Onamga asta dilimdagini aytdim.

Onam niyatimni otamga yetkazdi. Fikrim u kishiga ma'qul keldi. Ertasi kuni qishloqdagi oqsoqollarni maslahatga chaqirdik. Otam serka so'ydi. Biz Iskandartog' etagida yangi bog' barpo etish uchun hashar uyushtirdik. Otam qo'riq yerning bir siqim tuprog'ini kaftiga olib uni ta'riflashga tushdi. «Bu nihoyatda unumdor tuproq. Xudo xohlasa, bu yerda tengsiz bir ajoyib bog' bunyod bo'ladi.

Ko'ngillar bahra oladigan jannatmakon bog'...»

ENG ULUG' ZOT

Ona dunyoda eng ulug' zotdir. Ular bizni dunyoga keltirib sog'lom qilib voyaga yetkazayotganliklari uchun qancha rahmat-u minnatdorchiilik bildirsak, shuncha kam. Ular bizga bergan mehri hech kim hech qachon bera olmaydi. Yutuqlarimizdan quvonishadi. Ushbu she'rimni mehribon onajonimga bag'ishlayman.

Sizdir mening bo'stonim, Hamda ishongan tog'im. Qalbingga quvonch bergan, Mehribon, ulkan bog'im.

Shohjahon ALISHEROV,
Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 48-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi



AXTAMQULI

Bir payt qaragam, chayladan nariroqda chumolilar askarlarday safga tizilishib, bir tekis bo'lib inlariga don tashishyapti. Ularni kuzatib, kallamga bir fikr keldi. To'kilgan donlardan olib, inlari oldiga to'kib qo'ydim. Chumolilar ham issiqda dam olishsin, inlari oldidagi donni tashishsin, deya xayol qilgandim. Kechki payt tog'amga bugungi voqea haqida so'zlab berdim. U kishi: «Ha-a-a, jiyan-a», dedi-yu kulib qo'ydi. Men hayron bo'ldim.

Ertasiga chumolilarning inidan xabar oldim. Ne ko'z bilan ko'rayki, to'kib qo'ygan donlarim qanday bo'lsa shundayligicha turardi. Tog'amdan: «Chumolilar nega men qo'ygan donlarni inlariga tashishmayapti?» deb so'radim. Tog'am bu gal ham kulib: «Ular mehnatsiz topilgan donni inlariga tashimaydilar. Yaxshisi, ularni yig'ib ol», dedilar. Tog'amning miyig'ida kulib qo'ygandiligining sababini endi tushungandek bo'ldim. Chumolilar esa tinmay don tashishda davom etishardi...

Nodira NAZAROVA

GHUMOLI



choy ichgach, ular biroz dam oladigan bo'lishdi. Men esa kitob o'qishga tutindim.



SPORT TOMORROW

yosh futbolchilarni g'alabalar sari undaydi

Yaqinda poytaxtimizda 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasida «Sport for tomorrow» nomli futbol festivali bo'lib o'tdi. Unda yurtimiz yosh charm to'p ustalaridan tashqari, Yaponiya, Eron hamda Turkmaniston o'smirlar terma jamoasi g'oliblik uchun bahs olib bordi.

maydonlarda ko'rsatayotgan ajoyib o'yinlarini aytib o'rinishdir. Quvonarlisi, poytaxtimiz mezbonlik qilgan turnirda ana shunday yosh futbolchilardan tashkil topgan O'zbekiston (U-16) o'smirlar terma jamoasi munosib ishtirok etdi. Temur Olimxo'jayev boshchiligidagi jamoamiz musobaqadagi dastlabki uchrashuvda turkmanistonlik tengqurlariga qarshi maydonga tushib, yakunda raqiblarini yirik 5:1 hisobida taslim etishdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda sportga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida futbol eng ommaviy sport turlaridan biriga aylandi. Bugun shahar-u qishloqlarimizda bunoyd etilayotgan bir-biridan muhtasham sport inshootlari, futbol maydonchalarini yoshlarimizning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishiga xizmat qilibgina qolmay, ular orasidan yangi-yangi nomlarning kashf etilishiga zamin yaratmoqda. So'zimiz tasdig'i sifatida Dostonbek Hamdamov, Akromjon Komilov, Zabihullo O'rinboev, Jamshid Boltaboyev, Abbosbek Maxsitaliyev kabi yosh iqtidor egalarining xalqaro yashil

2-o'yinda esa vakillarimiz Eron o'smirlar terma jamoasi bilan o'zaro bahs olib bordi. O'yinning dastlabki daqiqalaridan forslar musobaqaga shunchaki kelmaganliklarini amalda isbotlab, darvozamiz oldida bir necha xavfli vaziyatlarni yuzaga keltirishdi. Ayniqsa, uchrashuvning birinchi bo'limi mehmonlarning to'liq ustunligi ostida o'tdi. Shunday bo'lsa-da, eronliklar ham yosh futbolchilarimiz iqtidori oldida ojiz qolib, yakunda mag'lubiyat alaminu to'tib ko'rishga majbur bo'ldilar.

So'nggi uchrashuvda yosh futbolchilarimiz Yaponiya o'smirlar terma jamoasiga qarshi bahs olib borishdi. Anchagina qiziqarli ruhda



kechgan bahsda kunchiqar yurt vakillari 0:2 hisobidagi g'alabani tantana qildilar.

XOKKEYCHILARIMIZ SOVRINDORLAR SAFIDA

3-5-mart kunlari Qozog'istonning Chimkent shahrida xokkey bo'yicha yoshlar o'rtasida xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi.

Ta'kidlash kerakki, ushbu turnir yosh xokkeychilarimiz uchun ilk xalqaro musobaqa sifatida tarixda qoldi. Sportchilarimiz turnirdagi ajoyib ishtiroki bilan muxlis-u mutaxassislar olqishiga sazovor bo'ldi.

Aytish kerakki, ushbu musobaqa O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi uchun shu yilning 15-sentyabridan 2-oktyabr gacha qadar Hindistonda bo'lib o'tadigan Osiyo chempionatiga tayyorgarlik bosqichlaridan biri bo'lib xizmat qildi.



Jumladan, 8 yoshgacha bo'lgan jamoalar o'rtasidagi bahslarda vakillarimiz 2-o'rinni qo'lga kiritdi. 10 yoshlilar ishtirokidagi bellashuvlarda esa yosh sportchilarimiz bronza medaliga sazovor bo'ldilar. Shuningdek, musobaqa yakuniga ko'ra iqtidorli xokkeychimiz Maksim EM turnirning eng yaxshi himoyachisi deb topildi.

Sa'dullo TURSINOV

Barchinoylar ko'paysin

BAYRAMGA BAG'ISHLANGAN BELLASHUV

Yurtimizda bolalar sporti rivojiga alohida e'tibor berilmoqda. Turli musobaqalarni tashkil etish orqali, yoshlarni ommaviy tarzda sportga jalb etishga erishilmoqda.

Yaqinda Toshkent axborot texnologiyalari universitetining sport majmuasida sport raqsi bo'yicha hamda Toshkent xalqaro Vestminster universiteti sport majmuasida badminton va ushu bo'yicha musobaqa o'tkazildi.

8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlab «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hamkorligida tashkil etilgan turnirda sport raqsi, badminton va ushu bo'yicha 150 nafardan ortiq 2000–2005-yillarda tug'ilgan va undan kichik yoshdagi o'smirlar va bolalar uchun yosh toifasida o'zaro kurash olib borishdi.

Musobaqada ishtirok etgan yosh sportchilarning betakror harakatlari yig'ilganlarga bir olam zavq ulashdi. Ayniqsa, badminton va ushu bo'yicha bellashuvlar anchagina keskin va murosasiz tarzda o'tdi.

Yakunda g'oliblar tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Sh. KAZAKBAYEV

Lobar Mahmudmurodovani tahririyat xodimlari yaxshi bilishadi. U tez-tez huzurimizda bo'lib, yozgan maqola-yu she'rlari bilan o'rtoqlashadi. Bir so'z bilan aytganda, bu qizning ko'p qirrali ijodkor ekanligi hayratimizni oshiradi.



H. HAMIDULLAYEV olgan surat

nashrdan chiqdi. E'tiborlisi, u karving san'atini ham puxta egallab, hatto shogirdlar yetishtirishga ham ulgurdi. Shuningdek, Lobar yana pazandalik hamda sartaroshlikka ham qiziqib, hozirda mazali taomlari va chiroyli soch turmaklari bilan yaqinlarini xushnud etayotir.

Hamma davrda ham mehnat insonni ulug'lab kelgan. Ayniqsa, yosh va beg'ubor qizlar qanday niyat qilsa, albatta, ijobat bo'ladi. Biz Lobarning barcha orzulari ushalishiga tilakdoshmiz.

Manzura UBAYDULLAYEVA

Tengdoshingiz Lobar poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 1-tibbiyot kolleji o'quvchisi. U 2015-yildan Mirobod tumanidagi Bolalar va o'smirlar sport maktabida erkin kurash bo'yicha mashg'ulotlarda qatnashib kelmoqda. Yaqinda u qizlar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada barcha raqiblarini mag'lubiyatga uchratib, yakunda 1-o'rinni egalladi. Uning bugunga qadar qo'lga kiritgan diplom va faxriy yorliqlari, medallarining soni anchagina. Lobarning yutuqlarida, eng avvalo, onajonisi, shu bilan birga, ustozlari Komil Soliyev muhim o'rin tutadi.

Yana u she'riyat shaydosidir. Iqtidorli tengdoshingizning so'nggi yillarda «Onajonim, yonimda borsiz» hamda «Orzu karvoni» nomli kitoblari



Sh. MAXMADIYEV olgan surat

KATTA TANAFFUS

Bolajonlar, uchinchi chorak yakunlanishiga ham oz fursat qoldi. O'qishlar bilan biroz toliqib qolmadingizmi? Yo'q, deysizmi? Barakalla! Biz ham sizlarni yaxshi o'qishingiz va namunali xulq egasi bo'lishingizni istaymiz. Sizlar bilan «Katta tanaffus»da gaplashadigan gaplarimiz yig'ilib qoldi, chog'i?.. Marhamat, davramizga qo'shiling va vaqtingizni mazmunli o'tkazing.

ENG NAMUNALI SINIF

Sinfimizda 23 nafar o'quvchi bor. Bizga Gulshod opa Ochilova rahbarlik qiladi. Maktabimizda «Eng namunali sinf», «Eng toza sinf», «Eng tartibli sinf» nominatsiyalari bo'yicha monitoring qilinadi. Bunda o'quvchilarning hafta davomida davomati, sinf xonasining tozaligi, formasi, ma'naviyat burchagi, to'garaklarga a'zo o'quvchilar soni, darsga kechikmasliklari nazoratga olinadi. Agar hammasi joyida bo'lsa, bu sinfga «Eng namunali sinf» nominatsiyasi beriladi. Yaqinda biz «Eng namunali sinf» nominatsiyasiga ega bo'ldik. Endi bu yutuqni o'quv yili oxirigacha qo'ldan bermaslikka harakat qilamiz.

Nilufar HUSENOVA,

Buxoro viloyati, Peshku tumanidagi 32-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

XANDILAR

Ota o'g'lini koyidi:
- Tezda darsingni qil, axir kech bo'lib qoldi-ku...
O'g'il otasiga:
- Ustozimiz o'qishning erta-kechi yo'q, deydi-ku...



- Suhrob, jonivorlarga suv berdingmi?
- Ha, berdim.
- Unda nega ma'rayapti?
- Rahmat, deya'ytogandir-da...

Shohrux USMONOV,

Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi 7-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi

MATEMATIKA FANIDAN TEST

1. $2+2x2$ misolini yeching.

A) 8; B) 6; D) -6; E) 5.

2. Quyidagi tenglamalardan qaysi biri ildizga ega emas?

- A) $8x^2 - 12x + 5 = 0$;
B) $12x^2 - 36x + 27 = 0$;
D) $x^2 + 2x - 8 = 0$;
E) $18x^2 - 24x + 8 = 0$.

3. Tomonlarining uzunliklari 9, 8 va 5 ga teng uchburchakning katta balandligini toping.

- A) $\frac{4\sqrt{11}}{3}$; B) $2\sqrt{11}$;
D) $\frac{12}{5}\sqrt{11}$; E) $\frac{3\sqrt{11}}{2}$.

X. HASANOVA



QIYSHIQ «IKKI»

A'lochi Irodaxon, Sinfda chiroyli qiz. Darslardan «besh» oladi, Davomati doim yuz.

Bir kuni Irodaxon, Inshodan «ikki» oladi. Uyalib, qizarib u, Boshini egib qoldi.


Ustoz dedi: «Inshoda Ishonib siz sehrga, O'zgina joy bermabsiz, Haqiqatga, mehrga».



Ustozidan arazlab, Irodaxon qizgina. Yig'lab-yig'lab so'zladi, Ustozdan qilib gina:

«Ustoz, mening yozganim, Xatolarga yo'yibsiz, Shoshib siz ham «ikki»ni, Qiyshaytirib qo'yibsiz».

Abdumalik XURSANALIYEV, Farg'ona viloyati, Bag'dod tumanidagi 1-IDUMI 5-«B» sinf o'quvchisi



Topqirlik bahsi

HAMMASI «S»DAN BOSHLANADI

Krossvorddagi gullarning ichidan «S» harfidan boshlanadigan qizlarning ismini toping!



Zulxumor BEKBOBOYEVA, Jizzax viloyati, Yangiobod tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

QAYMOQLI SHIRINLIK

Kerakli masalliq: 400 gramm sariyog', 200 gramm qaymoq, 6 dona tuxum, 1,5 piyola shakar, choyqoshiq uchida iste'mol sodasi, kerakli miqdorda un.

Tayyorlanishi: 400 gramm sariyog'ni qirg'ichdan o'tkazib, 4 piyola un bilan uqalanadi. 6 dona tuxum oqi sarig'idan ajratiladi. 200 gramm qaymoqqa 6 dona tuxum sarig'i, iste'mol sodasi qo'shib, unli qorishmaga solinadi va yumshoq xamir qoriladi. Xamir bir muddat muzlatgichga qo'yiladi.

6 dona tuxum oqi 1,5 piyola shakar bilan ko'pirtililadi. Biroz tingan xamir 3 zuvalaga bo'linadi. Zuvalalardan biri patnisa ga yoyilib, gaz pechiga 10 daqiqaga qo'yiladi va shu muddat o'tgach olinib, ustiga tuxumli massani uchdan biri surtilib, yana past olovda 10-15 daqiqa davomida pishiriladi. Qolganlari ham shu tarzda pishirib olinadi.

Kremiga: 1 banka quyultirilgan sut, 500 gramm qaymoq.

Pishgan bo'laklar orasiga krem surtilib, ustiga eritilgan shokolad quyiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

Bosh muharrir
Feruz ADILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Dilshod KENJAYEV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruz JALLOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Naybatchi muharrir
Dilorom HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchidizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 51557
Buyurtma - S 5388

Muassislar:

O'zbekiston Mathuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.